



FARG‘ONA VILOYATI O‘ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2023 - yil 5 - yanvar

1-11-161-Q/23

O‘zbekiston tuman hokimligi

O‘zbekiston tumanida 2023 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi (*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 15-son, 197-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son*), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (*Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021 y., 09/21/125/0195-son*)ga, O‘zbekiston tuman IIB boshlig‘i B.Nadjimitdinovning 2022 yil 2-dekabr kungi 359-sonli aloqa xatiga muvofiq transport vositalarining 2023 yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga,

tumandagi yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga,

O‘zbekiston tuman xududida 2023 yil mavjud avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan transport vositalari soni xaqida ma‘lumot 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan

o'tkaziladi:

a) tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan (haydovchining o'rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko'p bo'lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o'n bir yildan o'n to'rt yilgacha (o'n to'rtinchi yili ham) bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o'n besh yil va undan ortiq bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko'rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Ishlab chiqarilganiga o'n yilgacha (o'ninchi yili ham) bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko'rikdan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladi.

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalarining texnik ko'rigi:

birinchi marta – **1 mart - 30 iyunda;**

ikkinchi marta - **1 sentyabr - 31 oktyabrda** o'tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko'rigi **1 yanvar - 31 dekabrda** o'tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko'rikdan o'tkazishda:

transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko'rsatilgan ma'lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovoqli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarning muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy

gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror “Yaypan ovozi” gazetasining navbatdagi sonida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror qabul qilinib tegishli tartibda kuchga kirgan kundan tuman xokimining 2021-yil 30-dekabr kungi 208-11-161-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin hamda 30.12.2022 yil kungi 430-11-161-Q/22-sonli qarori esa bekor qilinsin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Ismoilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b



X.Alijonov

O‘zbekiston tuman hokimining
2023 yil 5 yanvardagi
1-11-161-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**O‘zbekiston tumanida 2023 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rigini
o‘tkazishni tashkil etuvchi komissiya**

T A R K I B I.

Komissiya raisi:

1. I.Mamajonov

**O‘zbekiston tumani IIB YXXG katta
inspektori katta leytenant:**

A‘zolari:

1.M.Yulchieva

“Avtomotoxavaskorlar” jamiyati raisi

2.I.Xo‘jaev

Tuman Mudofa bo‘limi mutaxassisi

3.I.Topilov

“M.K.Vatanparvar” O‘STK raxbari

O'zbekiston tuman hokimining
2023 yil 5 yanvardagi
1-11-161-Q/23-son qaroriga
2-ilova

O'zbekiston tumanidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2023 yilgi majburiy texnik ko'rigini o'tkazish

J A D V A L I

№	Korxonona va tashkilotlar nomi	Texnik ko'rikdan o'tkaziladigan sana	Texnik ko'ridan o'tkaziladigan joy
1	"O'zbekneftgaz"	03.03.2023	O'zbekneftgaz
2	"O'zbekiston aloqa info"	04.03.2023	O'zbekiston aloqa info
3	"Tibbiyot birlashmasi"	06.03.2023	YHXG
4	"Qishloq va suv xo'jaligi"	07.03.2023	YHXG
5	"O'z agro servis"	09.03.2023	YHXG
6	"Qo'qon-Yaypan-Farg'ona" MChJ	10.03.2023	Qo'qon-Yaypan-Farg'ona MChJ
7	"Sekond Lider Taksi" MChJ	11.03.2023	YHXG
8	"Gold Mega Taksi" MChJ	13.03.2023	YHXG
9	"Impala Alfa Trans" MChJ	14.03.2023	Impala Alfa Trans MChJ
10	"Avtaxamkor Yaypan" MChJ	15.03.2023	YHXG
11	"Jakob Prifir" MChJ	16.03.2023	Jakob Prifir MChJ
12	"Xushnubek Ishonch" MChJ	17.03.2023	Xushnubek Ishonch MChJ
13	"Forus Kapital Invest" MChJ	18.03.2023	Forus Kapital Invest MChJ
14	"Yaypan Tarraqiyot Invest" MChJ	20.03.2023	Yaypan Tarraqiyot Invest MChJ
15	"Yaypan Qurilish Inves't" MChJ	24.03.2023	Yaypan Qurilish Invest MChJ
16	"Fergana Kattle Reysir" MChJ	25.03.2023	Fergana Kattle Reysir MChJ
17	"Ovchi Avtotrans" MChJ	27.03.2023	YHXG
18	"Tadbirkor" fermer xo'jaligi	28.03.2023	YHXG
19	"Shiddat" xususiy korxonasi	29.03.2023	YHXG
20	"Begali Farm" xususiy korxonasi	30.03.2023	Begali Farm xususiy korxonasi
21	"Xumoyun Group" MChJ	31.03.2023	Xumoyun Group MChJ
22	"Bandlikka ko'maklashishi markazi"	01.04.2023	YHXG
23	"G'iyosiddin Muxammadjon" MChJ	03.04.2023	YHXG
24	"Tilovatxon Bo'ston fermer" xo'jaligi	04.04.2023	YHXG
25	"Gloriya Invest Tekst" MChJ	05.04.2023	YHXG
26	"Universal savdo saxovati" MChJ	06.04.2023	Universal savdo saxovati MChJ
27	"Marvarid vodiy durdonasi" xo'jaligi	07.04.2023	Marvarid vodiy durdonasi xo'jaligi
28	"Imkon Gip"s xususiy korxonasi	08.04.2023	YHXG
29	"Aziz Alrashid" xususiy korxonasi	10.04.2023	YHXG
30	"Kimsanobod" fermer xo'jaligi	11.04.2023	YHXG
31	"Eko Top biznes" MChJ	12.04.2023	YHXG
32	"Sho'rsuv Mobil xususiy" korxonasi	13.04.2023	YHXG
33	"Sardor Sibel" MChJ	14.04.2023	YHXG
34	"Sho'rsuv Invest" MChJ	15.04.2023	YHXG
35	"Yaypan Bo'ston Sobirjon" fermer xo'jaligi	18.04.2023	Yaypan Bo'ston Sobirjon fermer xo'jaligi
36	"San Media Mobil" xususiy korxonasi	19.04.2023	San Media Mobil xususiy korxonasi
37	"Saxovat Pasha Muxiddin"	20.04.2023	Saxovat Pasha Muxiddin
38	"Maydalash Saralash" xususiy korxonasi	21.04.2023	YHXG

39	"Daza Foods" MChJ	22.04.2023	YHXG
40	"To'raqosimboy Yaypan" xususiy korxonasi	24.04.2023	YHXG
41	"Sho'rsuv sement" MChJ	25.04.2023	YHXG
42	"Turon eko Sement" MChJ	26.04.2023	YHXG
43	"Umidbek Qobilbek Fayz" MChJ	27.04.2023	Umidbek Qobilbek Fayz MChJ
44	"Konizar Qurilish savdo" MChJ	28.04.2023	Konizar Qurilish savdo MChJ
45	"Izzat Yayponiy" nomli bog'dorchilik	29.04.2023	YHXG
46	"Xondamir" savdo MChJ	01.05.2023	YHXG
47	"Xursand Sadosi" dexqon xo'jaligi	02.05.2023	YHXG
48	"Sho'rsuv G'isht zavodi" MChJ	03.05.2023	YHXG
49	"Fayz Temir Beton servis" MChJ	04.05.2023	YHXG
50	"Yaypan Regal Mebel"	05.05.2023	YHXG
51	24-Avtokorxonasi	06.05.2023	24-Avtokorxonasi
52	"559-XMKK" MChJ	08.05.2023	559-XMKK MChJ
53	"Al Aziz Polimir"	09.05.2023	Al Aziz Polimir
54	"Diyorbek Gulnozxon" dexqon xo'jaligi	10.05.2023	Diyorbek Gulnozxon dexqon xo'jaligi
55	"Gold Gips Kard" MChJ	11.05.2023	Gold Gips Kard MChJ
56	"Ili do'st gaz" MChJ	12.05.2023	Ili do'st gaz MChJ
57	"Istiqlol Grand" pishiriqlari	13.05.2023	YHXG
58	"Kavboy Pilus" fermer xo'jaligi	16.05.2023	YHXG
59	"Maysagul" Dexqon xo'jaligi	17.05.2023	YHXG
60	"Mirzo Murodbek" MChJ	18.05.2023	YHXG
61	"Neft Gazmineral" Sho'ba korxonasi	19.05.2023	YHXG
62	"Oltin Tomorqa" dexqon xo'jaligig	20.05.2023	YHXG
63	"Paxtaqaynar alternativ mashina"	22.05.2023	Paxtaqaynar alternativ mashina
64	"Qo'qon Alfa Trans" MChJ	23.05.2023	Qo'qon Alfa Trans MChJ
65	"Vodiy shifer savdo" MChJ	24.05.2023	Vodiy shifer savdo MChJ
66	Yakkatut Shifo Servis MChJ	25.05.2023	YHXG
67	"Yangi Xayot" nomli paxta g'alla	26.05.2023	YHXG
68	"Yaypan chorvasi" dexqon xo'jaligi	27.05.2023	YHXG
69	"Zikumaks Savdo" xususiy korxonasi	29.05.2023	Zikumaks Savdo xususiy korxonasi
70	"Akramxo'ja Xoji" KTSIXF	30.05.2023	Akramxo'ja Xoji KTSIXF
71	"Jo'raboy Ota" bog'dorchilik	31.05.2023	YHXG
72	"Konizar Savdo Plast Servis" MChJ	01.06.2023	YHXG
73	"Qorayozbobo fermer" xo'jaligi	02.06.2023	Qorayozbobo fermer xo'jaligi
74	"Qudash Muruvat uyi" MEXNAT VA AX.IJT.XIM.VAZ	03.06.2023	Qudash Muruvat uyi MEXNAT VA AX.IJT.XIM.VAZ
75	"Moxirbek Shoxsanam" dexqon xo'jaligi	06.06.2023	YHXG
76	"Navro'z" kichik xususiy korxonasi	07.06.2023	YHXG
77	"Oqsuv" MChJ	08.06.2023	YHXG
78	"Paxtakor" xususiy korxonasi	09.06.2023	Paxtakor xususiy korxonasi
79	"Risolatxon Buvi" fermer xo'jaligi	10.06.2023	Risolatxon Buvi fermer xo'jaligi
80	"Universal MAN" MChJ	13.06.2023	YHXG
81	"O'rmonobod" nomli paxta g'alla chorva	14.06.2023	YHXG
82	"Usta Otaqo'zi" fermer xo'jaligi	15.06.2023	YHXG
83	"Xojimansur" xususiy korxonasi	16.06.2023	YHXG

84	"Xotamtoy Shifobaxsh Asal" nomli asalarichilik	17.06.2023	YHXG
85	"Yaypan Omuxta Yem" MChJ	20.06.2023	Yaypan Omuxta Yem MChJ

O'zbekiston tuman hokimining
2023 yil 5 yanvardagi
1-11-161-Q/23-son qaroriga
3-ilova

O'zbekiston tuman xududida 2023 yil mavjud avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi lozim bo'lgan transport vositalari soni xaqida

MA'LUMOT

№	Yuridik shaxslarga tegishli K O' R S A T K I C H L A R	Soni
1.	Jami yuridik shaxslarga tegishli avtomobillar	1009
1.1	Avtobuslar	16
	Mikroavtobuslar	4
1.2	Engil avtomobillar	695
	«Damas» rusumli yengil avtomobillar	61
1.3	Jumladan,	Jami yuk avtomobillari
	Shundan,	Xavfli yuktashuvchi TVlar. Shundan:
		1.Gaz tashuvchi
		2.Neft maxsul tashuvchi
		O'zi ag'daruvchi (samasval)
		Boshqa yuk TVlar
	Jami	
2.	Jami mototransport vositalari	13
3.	Jami tirkamalar	28
	Jismoniy shaxslarga tegishli K O' R S A T K I C H L A R	Soni
1.	Jami jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar	19495
1.1	Avtobuslar	12
	Mikroavtobuslar	107
1.2	Engil avtomobillar	12803
	«Damas» rusumli yengil avtomobillar	5019
1.3	Jumladan:	Jami yuk avtomobillari
	Shundan,	Xavfli yuk tashuvchi TVlar. Shundan:
		1.Gaz tashuvchi
		2.Neft maxsul tashuvchi
		O'zi ag'daruvchi (samasval)
		Boshqa yuk T Vlar
2.	Jami mototransport vositalari	258
3.	Jami tirkamalar	442

Ko'rsatkichlar		Avtomoto transport					
				Yuridik		Jismoniy	
		jami	Ko'rikdan O'tishi lozim	jami	Ko'rikdan O'tishi lozim	jami	Ko'rikdan O'tishi lozim
Jami avtomototransport		21225	18376	1022	596	20203	17780
Shundan	Avtotransport vositalari	20954	12562	1009	587	19753	17527
	Mototransport vositalari	271	262	13	9	258	253